

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI VA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI.

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti

katta o'qituvchisi

Patxallayeva.E.I.

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich ta'lism pedagogikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va integratsiyalashgan ta'lism jarayonini tashkil etishdagi ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola boshlang'ich ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar va fanlararo aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lism samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'z: Falsafa, iqtisod, etika, psixalogiya, tarix, fizialogiya, gigeyena,didaktika, matematika, tilshunoslik, ijtimoiy fanlar.

Boshlang'ich ta'lism pedagogikasi fani ko'plab fanlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi. Ushbu aloqadorlik fanlararo yondashuvni ta'minlaydi va ta'lism jarayonini boyitishga xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiyl mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Psixologiya bilan aloqasi: Boshlang'ich ta'lism pedagogikasi, avvalo, bolalar psixologiyasi bilan uzviy bog'liq. Ta'lism jarayonida o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim. Bu bilimlarni o'quv jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchilarining qiziqishlarini rivojlantirish va ularning psixologik ehtiyojlarini qondirishda qo'llash mumkin. Shuningdek, boshlang'ich ta'lism jarayonida motivatsiya, xotira, diqqat va ijodiy tafakkur kabi psixologik jarayonlarni tahlil qilish ham pedagogika uchun dolzarbdir.

Falsafa bilan aloqasi: Falsafa boshlang'ich ta'lism pedagogikasining nazariy asoslarini belgilaydi. Bolalar ongini shakllantirishda insonning hayotdagi o'rni, ma'naviyat va qadriyatlar haqida falsafiy bilimlarni ta'lism jarayoniga tatbiq etish muhimdir. Shuningdek, ta'lism va tarbiya jarayonida pedagogikaning maqsadi va vazifalarini belgilash falsafiy yondashuvlarga tayanadi.

Tilshunoslik bilan aloqasi: Boshlang'ich ta'lism jarayonida ona tili va adabiyot fanlari muhim o'rinni egallaydi. O'quvchilarini savodxonlikka o'rgatish, lug'at boyligini oshirish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish tilshunoslik bilimlariga asoslanadi.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**
International online conference.

Date: 23rd December-2024



Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning yozuv, talaffuz va grammatik bilimlarini mustahkamlash uchun lingvistik yondashuvlardan foydalaniadi.

Matematika bilan aloqasi: Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi matematika o‘qitish metodikasi bilan ham yaqin bog‘liq. Boshlang‘ich sinfda arifmetik bilimlarni shakllantirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonni tashkil etishda matematika fani bo‘yicha didaktik bilimlar qo‘llaniladi.

Biologiya va fiziologiya bilan aloqasi: Bolalarning jismoniy va sog‘lom rivojlanishini ta’minalash boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining muhim vazifalaridan biridir. Biologiya fani bolalarning organizm faoliyati va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda qo‘llaniladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda biologiya va gigiyena bo‘yicha bilimlar muhim o‘rin tutadi.

Tarix va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarixiy voqealar, vatanparvarlik g‘oyalari va milliy qadriyatlar haqida bilim berishda tarix va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liqlik kuzatiladi. Bu fanlar orqali o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, tarixiy xotira va madaniy merosni hurmat qilish hissi shakllanadi.

San’at va estetika bilan aloqasi: Estetik tarbiya boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Musiqa, rasm chizish, me’morchilik va xalq san’atining boshqa turlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarning estetik didi va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Bu jarayon san’at fanlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

Axborot texnologiyalari bilan aloqasi: Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari bilan bog‘liqlik tobora ortib bormoqda. Boshlang‘ich sinfda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali interaktiv darslar tashkil etish, o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Integratsiyalashgan ta’lim jarayoni boshlang‘ich ta’limda bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘rgatishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvdir. Bu jarayon ta’lim mazmunini turli fanlar o‘rtasida bog‘liqlikni yaratgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilimlarni yaxlit idrok etish, ijodkorlikni rivojlantirish va turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

Bilimlarning yaxlitligini ta’minalash. Boshlang‘ich ta’limda turli fanlar o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatish bolalarning bilimlarni yaxlit qabul qilishiga yordam beradi. Masalan, matematik masalalarini tabiatshunoslik bo‘yicha ma’lumotlar bilan bog‘lab yechish yoki ona tili darsida adabiy matnlarni tarixiy voqealar bilan bog‘lash bolalarda bilimlarni yaxlit idrok etish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Integratsiyalashgan darslar orqali o‘quvchilar turli mavzularni o‘rganishda ijodiy yondashuvni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, matematika va san’atni birlashtirgan holda geometrik shakllar asosida rasm chizish yoki

PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.

International online conference.

Date: 23rd December-2024



hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Amaliy ko'nikmalarini shakllantirish. Integratsiyalashgan ta'lismi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyatni ham rivojlantiradi. Masalan, atrof-muhit mavzusida o'quvchilar tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya va san'at fanlarini birlashtirgan holda loyihibar yaratadi. Bu ularda kuzatuvchanlik, muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Motivatsiyani oshirish. O'quvchilarga qiziqarli va interaktiv darslarni taqdim etish ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilar o'z bilimlarining turli yo'nalishlardagi ahamiyatini ko'radi va ta'limga nisbatan motivatsiyalari ortadi.

Ta'lismi samaradorligini oshirish. Turli fanlarni bog'lagan holda o'quvchilarga bilim berish jarayoni ularda xotira va diqqatni kuchaytiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lismi o'qituvchilar uchun ta'lismi mazmunini qiziqarli va samarali tarzda yetkazish imkoniyatini yaratadi.

Integratsiyalashgan ta'lismi jarayonida bir yoki bir nechta fanlarni birlashtirish orqali darslar tashkil etiladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarga bilimlarning ko'p qirralilagini va turli yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatishdir. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda turli mavzularni yaxlit ko'rish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa.Boshlang'ich ta'lismi pedagogikasi ko'pgina fanlar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik bolalar bilimini kengaytirish va ta'lismi jarayonini yanada samarali tashkil qilish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'lismi pedagogikasining boshqa fanlar bilan uyg'unligi ta'lismi jarayonini boyitib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish uchun zarur bo'lgan mustahkam ilmiy asosni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov, A. Ta'lismi jarayonida integratsiyalashgan yondashuv. Toshkent: Ma'naviyat. 2017.
2. Jalolov, J. J. Boshlang'ich ta'limga innovatsion metodlar. Toshkent: Yangi asr avlod. 2016
3. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YOLLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 235-238.
4. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
5. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 70-74.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd December-2024

6. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 663-670.
7. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 73-82.
8. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(9), 22-27.
9. G'ayratovich, K. B., & Mirzohidovich, M. M. O. (2023). XOTIRA RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. *Journal of new century innovations*, 27(2), 54-57.
10. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.